




PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(31)

2026



Jumayev Umedjon To‘raqulovich. Art-terapiya orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda san‘atga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish.....	244
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini oshirishda sinfdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarining roli.....	248
Rajabova Charos Sheroziddin qizi. O‘qituvchi – kreativ muhit arxitektori: boshlang‘ich sinflarda pedagogik mahorat va innovatsiya.....	253
Azizova Charos Abdumannon qizi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hamkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarining mohiyati.....	259
Nurullayeva Xatira Jalman qizi. Kompetensiyaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish metodlari.....	263
Shoyqulova Dilbar Dilshod qizi. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari va amaliy imkoniyatlari (boshlang‘ich ta‘lim misolida).....	268
Turdialiyeva Sarvinoz Erkinbek qizi. Ma‘naviy tarbiya samaradorligini oshirishda milliy g‘oyaning roli.....	274
Shukurov Avaz Ro‘ziboyevich, Jo‘rayeva Gulnoza Nasriddinovna. Chzmachilik darslarida bir ko‘rinishli tasvirga asoslangan o‘quv chizmalaridan foydalanish.....	277
Bozorova Risolat Abdurahmonovna, Kamilova Gulmira Alimovna. Erta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	282
Gulov Sadridin Niyazovich. Musiqa ta‘limi jarayonida o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	288
Hasanov Halim Ravshanovich. Musiqiy savodxonlik darslarida musiqa tinglashning tarbiyaviy ahamiyati.....	292
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish.....	296
Rajabov To‘xtasin Ibodovich, Hojiyev Zafar Rustamovich. Buxoro doira usulining xalq og‘zaki ijodiyotidagi o‘rni va hozirgi zamon talabiga mos ravishda o‘rgatishni takomillashtirish samaradorligi.....	304
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Talabalarning chet tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metod va onlayn texnologiyalarning roli (san‘atga oid terminlar misolida).....	308
Qurbonova Go‘zal Rajab qizi. Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim pedagoglariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.....	321
Omonova Dildora. Darslik-o‘qituvchi-ta‘lim mazmuni uchlik piramidasi mutanosibligi.....	325
PSIXOLOGIYA.....	329
Shonazarov Jamol Umirzoqovich. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etishda o‘qituvchining kasbiy mahorat va axloqiy fazilatlar uyg‘unligi.....	329
Asadova Yulduz Ismatovna. Methods, forms, and means of teaching based on artificial intelligence technologies: the example of information technology in medicine.....	334
Xasanova Zebo Davlatovna, Murodova Muyassar Xikmatovna. Ijtimoiy tarmoq orqali bosimga uchragan o‘smirlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish.....	342
Musinova Ruxshona Yunusovna. Организационно-институциональные детерминанты нарушений саморегуляции у студентов.....	346
Ravshanqulova Dilora Ravshanovna. Talabalarni mustaqil hayotga ma‘naviy tayyorlashda kreativ yondashuvning ahamiyati.....	352
Salayeva Muborak Saburovna, Avazova E‘zoxon Jamshid qizi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.....	356
Turdiyeva Latofat Almardonovna. Jamiyatda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari.....	361
Fokhirova Umida Namozovna. Preserving psychological realism in the translation of literary texts.....	366
Qalandarova Yulduz Bahramovna. Talabalarda psixologik salomatlikni shakllantirishning mazmuni va o‘ziga xos jihatlari.....	372

Qurbonova Go'zal Rajab qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti,
maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan zamonaviy talablar, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari hamda pedagogik mahoratini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti mazmuni, uning asosiy tamoyillari, inklyuziv ta'lim, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish hamda oila-mahalla hamkorligini yo'lga qo'yishning ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada pedagogning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirish zarurati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, zamonaviy, faoliyat, maktabgacha ta'lim, kasbiy mahorat, standart, ustoz – shogird, uzluksiz rivojlanish, malaka oshirish, inklyuziv ta'lim, interfaol metod, muammoli vaziyat.

Аннотация: В данной статье освещаются современные требования, предъявляемые к будущим педагогам дошкольного образования, факторы развития их профессиональной компетентности и вопросы формирования педагогического мастерства. Также проанализированы содержание профессионального стандарта педагога дошкольной образовательной организации, его основные принципы, значение инклюзивного образования, использования интерактивных методов, моделирования проблемных ситуаций, а также налаживания сотрудничества семьи и махалли. В статье научно обоснована необходимость непрерывного развития личностных качеств, профессиональных знаний, умений и навыков педагога.

Ключевые слова: воспитатель, современный, деятельность, дошкольное образование, профессиональное мастерство, стандарт, наставник-ученик, непрерывное развитие, повышение квалификации, инклюзивное образование, интерактивный метод, проблемная ситуация.

Abstract: This article discusses the modern requirements for future preschool education teachers, the factors influencing the development of their professional competence, and the issues of forming pedagogical mastery. It also analyzes the content and main principles of the professional standard for preschool education teachers, the importance of inclusive education, the use of interactive methods, modeling problem situations, and establishing cooperation between family and community (mahalla). The article scientifically substantiates the necessity of continuous development of personal qualities, professional knowledge, skills, and competencies of teachers.

Keywords: educator, modern, activity, preschool education, professional competence, standard, mentor-apprentice, continuous development, professional development, inclusive education, interactive method, problem situation.

Kirish. Zamonaviy sharoitda bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni mustahkamlashga intilishi, faoliyatlar mazmunini maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan, har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'la qamrab olish va sifatli maktab ta'limiga tayyorlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Tarbiyachining mahoratini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mazmun mohiyatini bilish, uning barcha komponentlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, ularning birligi, izchilligini ta'minlash lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tarbiyachilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafiligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo bolalar bilan muntazam ravishda muloqotda bo'ladi. Shuning uchun, bola bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan zamonaviy talablar bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Ilmiy manbalarda bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda tarbiyalanuvchilar bilan samarali ishlash yo'llarini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha maktabgacha ta'lim xodimlarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim pedagog xodimlar oldiga yanada yangi vazifalar va maqsadlarni qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash" 08.07.2025 yilda 423-sonli qarorning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdi. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadida imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogining ta'lim – tarbiya jarayonida nafaqat bilim berish, balki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarga hayotiy tajribalarni orttirishda, muammolarni hal qilishda yordam berishga qaratilgan. Masalan. Z.S.Teshabayeva, N.M.Quchqorova va N.Z.Imamovalar tadqiqotlarida bo'lajak tarbiyachi – pedagoglarida kasbiy motivatsiyani shakllantirish, iqtisodiy kompetentligini metodik takomillashtirish va mustaqil ta'lim jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirishni amaliyotga joriy eta olishi zarurligi ta'kidlanadi.

Asosiy qism. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogalaridan yuqori darajada kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish talab etiladi. Shuning uchun bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

Pedagogik kompetensiya – bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachining ta'lim – tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda poydevor bo'lib ximzat qiladi. Ushbu kompetensiya pedagogning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish bosqichlari, yosh xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunini chuqur bilishini nazarda tutadi. Pedagog bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtira olishi, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil eta olishi zarur.

Psixologik kompetensiya - tarbiyachi har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyachi ularning emotsional holatini tushunishi, psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashi va qulay tarbiyaviy muhit yaratishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning shaxs sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ kompetensiya - tarbiyachining samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Tarbiyachi bolalar bilan samimiy va ochiq muloqot qilishi, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda hamkasblar bilan o'zaro tajriba almashishi orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, pedagogning nutq madaniyati va muloqot madaniyati ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya - zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachi uchun zarur bo'lgan muhim talab hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyachilar ta'lim jarayonida turli raqamli texnologiyalar (Bolalar bog'chasi – bog'chalarda ta'limni boshqarish axbarot tizimi.), elektron resurslar hamda axborot-kommunikatsion vositalardan (multimedia, videorolik) foydalanishlari zarur. Bu esa mashg'ulotlarning yanada qiziqarli va samarali o'tishiga, bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy fazilatlarini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Kasbiy standart bolani rivojlantirish dasturlari hamda pedagogika va psixologiya sohasida to'plangan tajribalardan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- bolani sifatli parvarish qilish, rivojlantirish va tarbiyalash uchun muhit yaratish;
- har bir bolaning o'ziga xosligini, his-tuyg'ularini va fikrlarini qabul qilish;
- ta'lim - tarbiya jarayonida bolaning rivojlanishini qo'llab - quvvatlash;
- inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi mas'uliyatni anglatish;
- interfaol metodlarni qo'llash, qiziquvchanlik va izlanishlarni rag'batlantirish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali bolaning ta'limiy faoliyatiga yordam berish;
- bolalar bilan bog'liq o'zaro ijtimoiy munosabatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish.

Bolalarni sifatli parvarish qilish, rivojlantirish va tarbiyalash uchun muhit yaratishda avvalambor maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruh xonalari davlat ta'lim standarti asosida tashkil etilishi muhim hisoblanadi. Har bir bolaning o'ziga xosligi, his – tuyg'ularini va fikrlarini qabul qilishda tarbiyachining kasbiy mahorati, to'plangan tajribalaridan kelib chiqib, ta'lim – tarbiya jarayonida bolalarning rivojlanishini qo'llab – quvvatlaydi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar tomonidan interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'limiy faoliyatlarda yordam berish imkoniyatini yaratadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, bevosita oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish muhim omillardab biri hisoblanadi.

Pedagogning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Ta'lim yo'nalishlari	Qayta tayyorlash kurslari	Malaka oshirish	Ustoz – shogird an'analari	Uzluksiz rivojlanish
Pedagoglarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olish.	Pedagoglarning pedagogik va kasbiy ko'nikmalarini oshirish uchun qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish	Pedagoglarning malakalarini oshirish uchun malaka oshirish kurslarida ishtirok etish	Tajribali pedagoglarning rahbarligi ostida o'rganish	Pedagoglarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarida ishtirok etish

Xulosa. Globallashtirish sharoitida maktabgacha ta'lim pedagogining roli tubdan o'zgarib, undan innovatsion kompetensiyalar talab etilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy faoliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilardan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki yuqori darajadagi pedagogik, psixologik, kommunikativ hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarga ega bo'lish talab etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim – tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.07.2025 yildagi 423-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli farmoni
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent – 2022
4. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o'quv qo'llanma / Tuzuvchi mualliflar: X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.
5. Enhancing the Methodology for Developing Cognitive-Pragmatic Competencies of Future Preschool Educators Through the Scaffolding Approach. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION (EJINE) VOLUME 6 | ISSUE 2 | FEB - 2026 ISSN: 2795-8612 .
6. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining kognitiv – pragmatik kompetensiyalari va uning pedagogik jarayonda tutgan o'rni. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, Buxoro 11-son (2025-yil, noyabr)